O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
NAMANGAN VILOYATI
BOSHQARMASI

Namangan viloyati 160100, Namangan shahri, A.Temur ko‘chasi, 105-uy, Tel/Faks: 71-203-11-38, E-mail: namexpert@umail.uz, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy
Boshqarma boshlig`i: Isakdjanov Avazbek Ismondjonovich
Sana: 22-01-2026 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

272402 - SONLI

Obyekt nomi: Namangan viloyati Namangan shahar Davlatobod tumani Yelxon MFY Islom Karimov ko‘chasi 185-uy hududida “SAMO BUILD-14” MCHJ tomonidan Shaharsozlik norma va qoidalari asosida, loyihadan chetlashmaslik sharti bilan o‘z qizil chizig‘i hududida “Savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish shahobchalari yerto‘la va qo‘shimcha pentxausni o‘z ichiga olgan ko‘p qavatli turar-joylar kompleksi” bino-inshootlari qurish (2-bosqich)	
Buyurtmachi:	SAMO BUILD-14 MCHJ
Bosh loyihachi:	"NEST ONE LOYIHA" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Loyiha topshirig‘iga asosan
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	108841

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Namangan viloyati Arxitektura shaharsozlik kengashi yig‘ilishining 29.11.2024 yildagi 47-sonli bayoni.

1.2. Namangan shahar Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limining 16.12.2024 yildagi 164350487-sonli ruxsatnomasi.

1.3. Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyiha topshirig‘i.

1.4. Namangan viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi tomonidan berilgan 17.12.2024 yildagi 1714-1714401-209790-sonli arxitektura rejalashtirish topshirig‘i.

1.5. Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishning texnik shartlari.

1.6. “O’ZGASHKLITI” Namangan viloyat filiali tomonidan 2024 yilda bajarilgan muhandis-geologik tadqiqotlar natijalari bo‘yicha texnik hisobotlari.

1.7. Ob’ekt loyihasining energiya samaradorligi ko‘rsatkichlari bo‘yicha xulosa.

1.8. Loyiha va tadqiqot ishlari uchun tuzilgan 16.12.2024 yildagi 22/1-sonli shartnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. “Ishchi loyiha”ni ishlab chiqish bosqichidagi loyiha hujjatlari:

- Umumiy tushuntirish yozuvi.
- Ko‘p qavatli turar-joy binolari (“A” tip, “G” tip va “D” tip). Arxitektura va qurilish qismi hamda ichki muhandislik tarmoqlari.
- Bosh reja, tashqi muhandislik tarmoqlari va kichik me’moriy inshootlar.
- Qurilishni tashkil etish loyihasi.
- Smeta hujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

Bino						
Turi	**Nomi**	**Qavati**	**Qurilish maydoni**	**Umumiy maydoni**	**Xajmi**	**Xonadonlar soni**
Ko'p xonadonli turar joy binosi	“G” TIPDAGI KO‘P QAVATLI TURAR-JOY BINOSI (33 DONA)	8	14025	115137	417516	1254
Boshqa	AYVON (16 DONA)	1	480	464	1520	
Ko'p xonadonli turar joy binosi	“A” TIPDAGI KO‘P QAVATLI TURAR-JOY BINOSI (26 DONA)	9	11050	108576	410800	1170
Ko'p xonadonli turar joy binosi	“D” TIPDAGI KO‘P QAVATLI TURAR-JOY BINOSI (6 DONA)	9	2862	28494	103848	270
Jami:			**28417**	**252671**	**933684**	**2694**

3.1. Qurilish uchastkasi tavsifi.

Ko‘p qavatli turar-joy kompleksi Namangan shahar Davlatobod tumani Yelxon MFYda joylashgan bo‘lib, tanlangan joy IV-iqlimiy sharoitga to‘g‘ri keladi. Zilzilaga bardoshliligi bo‘yicha – 8 ball. Tashqi havo harorati – 14°s. Me’yoriy qor yuklamasi – 0,50 kPa va shamol yuklamasi – 0,38 kPa. Poydevor ostining supes, galechnik va qum asos bo‘lib xizmat qiladi. Yerning seysmik holati bo‘yicha toifasi – II. Cho‘kuvchanligi bo‘yicha 1-guruh tuproq turiga to‘g‘ri keladi. Yer osti suvlari 15 metr chuqurlikkacha aniqlanmagan. Yerni tuzilish relefi – tekis.

3.2. Bosh reja.

“SAMO BUILD-14” MCHJ ning umumiy hudud – 180000 m^2, shundan 84300 m^2 turar-joy bino-inshootlari uchun hamda 95700 m^2 umumfoydalanishdagi ko‘kalamzorlashtirish, yo‘l va piyodalar yo‘laklari, bolalar maydonchalari hamda avtoturargoh uchun belgilangan.

2-bosqichda quyidagi bino-inshootlar ko‘zda tutilgan: turar-joy binolari – 65 dona (“A” tip – 26 dona, “G” tip – 33 dona, “D” tip – 6 dona), ayvon (besedka) – 16 dona, chiqindi tashlash joyi – 6 dona, o‘rindiq va chiqindi qutisi – 26 dona, yong‘ingi oldini olish qutisi – 18 dona, bolalar maydonlari, velosipedlar turargohi, avtoturargoh hamda kelajakda loyihalanadigan bolalar bog‘chasi, turar-joy binolari. Hudud obodonlashtiriladi va ko‘kalamzorlashtiriladi.

3.3. Loyihaning asosiy yechimlari.

1. Ko‘p qavatli turar-joy binosi (“A” tip – 26 dona).

Bino – 9 qavatli, yerto‘lali va texnik qavatli, rama-bog‘lamli, pishiq g‘ishtdan, to‘g‘ri to‘rtburchak shaklni tashkil etib, “A-D” va “1-6” o‘qlar bo‘yicha 16,8mx24,6m o‘lchamda, yer to‘la qavatda balandligi – 3,3m, 1 va 9 qavatlar balandligi – 3,3m, texnik qavat balandligi –

2,4m.

Bino yerto‘lasida texnik xonalar va omborxonalar, 1÷9 qavatlarda turar-joy xonadonlari va yuqorida texnik qavat ko‘zda tutilgan. Jami xonadon soni – 45 dona, shu jumladan: 1-xonali – 9 dona, 2-xonali – 27 dona, 3-xonali – 9 dona.

Konstruktiv yechimi.

Poydevor – yaxlit plitasimon temir-betondan, beton markasi V20.

Yerto‘la devorlari – yaxlit quyma betondan, beton markasi V25.

Devorlar – pishiq g‘ishtdan, 250mm qalinlikda.

Pardadevor – pishiq g‘ishtdan, 120mm qalinlikda.

O‘zaklar va sarbastalar – metall burchaklardan.

Ramalar – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V25.

Diafragma – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V25.

Zinapoyalar – yaxlit quyma temir-beton markasi V22,5.

Orayopma va tomyopma – yig‘ma temir-beton va yaxlit plitasimon temir-betondan, beton markasi V25.

Tom – yog‘och stropila va reykali to‘qima asosida profnastil qoplama.

Derazalar – plastik profil.

Eshiklar – MDF, alyumin va metall.

Pol – laminat, keramik, marmar va beton.

2. Ko‘p qavatli turar-joy binosi (“G” tip – 33 dona).

Bino – 7+pentxaus qavatli, yerto‘lali, rama-bog‘lamli, pishiq g‘ishtdan, to‘g‘ri to‘rtburchak shaklni tashkil etib, “A-D” va “1-6” o‘qlar bo‘yicha 16,8mx24,6m o‘lchamda, yerto‘la qavat balandligi – 3,3m, 1÷7 va pentxaus qavat balandligi – 3,3m.

Bino yerto‘lasida texnik xonalar va omborxonalar, 1÷7 va pentxaus qavatlarda turar-joy xonadonlari ko‘zda tutilgan. Jami xonadon soni – 38 dona, shu jumladan: 1 xonali – 7 dona, 2 xonali – 30 dona va 3 xonali – 1 dona.

Konstruktiv yechimi.

Poydevor – yaxlit plitasimon temir-betondan, beton markasi V20.

Yerto‘la devorlari – yaxlit quyma betondan, beton markasi V25.

Devorlar – pishiq g‘ishtdan, 250mm qalinlikda.

Pardadevor – pishiq g‘ishtdan, 120mm qalinlikda.

O‘zaklar va sarbastalar – metall burchaklardan.

Ramalar – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V25.

Diafragma – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V25.

Zinapoyalar – yaxlit quyma temir-beton markasi V22,5.

Orayopma va tomyopma – yig‘ma temir-beton va yaxlit plitasimon temir-betondan, beton markasi V25.

Tom – yog‘och stropila va reykali to‘qima asosida profnastil qoplama.

Derazalar – plastik profil.

Eshiklar – MDF, alyumin va metal.

Pol – laminat, keramik, marmar va beton.

3. Ko‘p qavatli turar-joy binosi (“D” tip – 6 dona).

Bino – 9 qavatli, yerto‘lali va texnik qavatli, rama-bog‘lamli, pishiq g‘ishtdan, murakkab shaklni tashkil etib, “A-Ye” va “1-5” o‘qlar bo‘yicha 21,9mx21,6m o‘lchamda, yerto‘la qavatda

balandligi – 3,3m, 1÷9 qavatlar balandligi – 3,3m, texnik qavat balandligi – 2,4m.

Bino yerto‘lasida texnik xonalar va omborxonalar, 1÷9 qavatlarda turar-joy xonadonlari va yuqorida texnik qavat ko‘zda tutilgan. Jami xonadon soni – 45 dona, shu jumladan: 1-xonali – 9 dona, 2-xonali – 36 dona.

Konstruktiv yechimi.

Poydevor – yaxlit plitasimon temir-betondan, beton markasi V20.

Yerto‘la devorlari – yaxlit quyma betondan, beton markasi V25.

Devorlar – pishiq g‘ishtdan, 250mm qalinlikda.

Pardadevor – pishiq g‘ishtdan, 120mm qalinlikda.

O‘zaklar va sarbastalar – metall burchaklardan.

Ramalar – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V25.

Diafragma – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V25.

Zinapoyalar – quyma temir-beton markasi V22,5.

Orayopma va tomyopma – yig‘ma temir-beton va yaxlit plitasimon temir-betondan, beton markasi V25.

Tom – yog‘och stropila va reykali to‘qima asosida profnastil qoplama.

Derazalar – plastik profil.

Eshiklar – MDF, alyumin va metall.

Pol – laminat, keramik, marmar va beton.

4. Ayvon (besedka) – 16 dona.

Inshoot – 1 qavatli, metall konstruksiyalardan, sakkiz burchakli shaklni tashkil etib, “A-B” va “1-2” o‘qlari bo‘yicha 5,7x5,7m o‘lchamda, ustunlar balandligi – 2,8m.

5. Chiqindi yig‘ish maydoni – 3 dona.

Metall konstruksiyalardan bo‘lib, 2,0x6,0m o‘lchamda, balandligi – 1,5 metr.

6. Bolalar maydonlari.

Zavodda ishlab chiqarilgan tayyor jihozlar qo‘llanilgan.

Ichki muhandislik tarmoqlari.

Isitish va shamollatish.

Issiqlik ta’minoti manbai keyingi bosqichda markazlashtirilgan isitish qozonxonasi hsoblanadi. Isitish tizimi uchun issiqlik tashuvchisi T1=90°, T2=70°s parametrlarga ega bo‘lgan suv bo‘lib, isitish tizimi ikki quvurli tizim etib loyihalangan. Tizimdan havoni chiqarib tashlash ta’minlangan bo‘lib, bimetall turdagi radiatorlar isitish asboblari sifatida qabul qilingan. Isitish suvo‘tkazgichlari polipropilen quvurlardan tashkil topgan. Shamollatish tabiiy va mexanik turtki bilan ta’minlash nazarda tutilgan. Binolarga havo oqimi derazalar orqali kirishi ta’minlangan.

Ichimlik va oqava suv ta’minoti.

Binolarga xo‘jalik-ichimlik, issiq suv, oqava suv hamda ichki yong‘inga qarshi suv ta’minoti tarmoqlari tizimi loyihalangan bo‘lib, tarmoqlar turli xil diametrdagi polipropilen, plastmassa va po‘lat quvurlardan tashkil topgan. Issiq suv ta’minoti quyosh suv isitgich qurilmalari nazarda tutilgan.

Elektr qismi.

Loyihada 380/220V kuchlanish ishchi yoritish ko‘zda tutilgan.

Tip-A (26 dona).

Hisobiy quvvat – Rh=144,9 kVt, hisobiy tok – Ih=249,8 kVt.

Tip-D (6 dona).

Hisobiy quvvat– Rh=147,7 kVt, hisobiy tok – Ih=254,6kVt.

Tip-G (33 dona).

Hisobiy quvvat– Rh=124,8 kVt, hisobiy tok – Ih=215,2 kVt.

Yoritish svetodiod chiroqlari yordamida amalga oshiriladi. Guruhli yoritish tarmog‘i va quvvatli tarmoq VVGng-380V, magistral shitlarning tarmoqlari VVG-380V kabelda loyihalangan. Loyihada ShK turdagi xonadon shitchasi, ShE turdagi yoritish qavat shitlari, ShRNm, ShMP, PR11 va VRU11 turdagi quvvatli taqsimlash shitlarni o‘rnatilishi hisobga olingan. Har bir xonadon elektr energiyasi hisoblash uchun zamonaviy 1 fazali hisoblagichlar o‘rnatilishi ko‘zda tutilgan.

Kuchsiz tok.

Loyihada har bir xonadonda internet, aloqa, televidenie hamda domofon tizimi tarmoqlari uchun texnik imkoniyatlar ko‘zda tutilgan bo‘lib, modem qurilmalari, televidenie rozetkalarini o‘rnatish ko‘zda tutilgan. Xonadonlar yong‘inga qarshi signalizatsiya tizimi bilan jihozlangan bo‘lib, tizimda qabul qiluvchi-nazorat asboblari, tutunli, issiqlikli yong‘in xabarlagichlari va IPR turdagi qo‘l xabarlagichlari qabul qilingan.

Yong‘in xavfsizligi.

Loyihada binoning o‘tga chidamlilik darajasi o‘tga chidamlilik chegaralari va inshootlarning yong‘in guruhlariga javob berishini ta’minlash ko‘zda tutilgan. Yong‘inni rivojlanishini oldini olish uchun yong‘in signalizatsiya loyihalangan. Binodagi eshiklar odamlarni evakuatsiya qilish yo‘nalishida ochiladi. Binolarda yong‘inga qarshi suv ta’minoti tarmoqlari tizimi loyihalangan. Tashqi yong‘inni o‘chirish maqsadlari uchun maydon ichki tarmog‘ida yong‘in gidrantlari o‘rnatish ko‘zda tutilgan.

Energiya tejamkorlik.

Energiya samaradorlikni ta’minlash uchun quyidagi energiya tejovchi texnologik yechimlar qabul qilingan:

- 1 qavat pol ostiga zichligi ɣ=30 kg/m^3, qalinligi 40 mm bo‘lgan “ penopolistirol” bilan issiqlik himoya qatlami (issiqlik himoyasining ikkinchi darajasi);
- devorlarga zichligi ɣ=140 kg/m3, qalinligi 80 mm bo‘lgan bazalt asosli mineral paxta bilan issiqlik himoya qatlami (issiqlik himoyasining ikkinchi darajasi);
- tomga zichligi ɣ=150 kg/m3, qalinligi 100 mm bo‘lgan mineral paxta bilan issiqlik himoya qatlami (issiqlik himoyasining ikkinchi darajasi);
- derazalar PVXdan qo‘llanilgan;
- “A” tipdagi turar-joy bino tomida 36 donadan (26x36=936 dona), “D” tipdagi turar-joy bino tomida 32 donadan (6*32=192 dona) va “G” tipdagi turar-joy bino tomida 34 donadan (33*34=1122), jami 2250 dona (2250x0,55 kVt= 1237,5 kVt) quyosh panellari o‘rnatish ko‘zda tutilgan;
- har bir turar-joy bino tomida 5 donadan, jami 325 dona geokollektorlar o‘rnatish ko‘zda tutilgan;
- binolarning zinalari, koridorlari va kirish joylaridagi yoritgichlar harakat datchikli svetodiodli chiroqlar orqali bajarilgan;

Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulay va to‘siqsiz muhit yaratish:

- binolarda pandus va tutqichlar, kirish joylarida ogohlantiruvchi va yo‘naltiruvchi taktil qoplamalar ko‘zda tutilgan;
- binolarda yuk ko‘taruvchanligi 1000 kg bo‘lgan liftlar ko‘zda tutilgan;
- binolarda 1-qavatga chiqish uchun ko‘targich ko‘zda tutilgan;
- hududda maxsus avtoturargoh ko‘zda tutilgan;

- hudud yo‘laklariga maxsus yo‘naltiruvchi va ogohlantiruvchi taktil qoplama ko‘zda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Suv ta’minoti – “Namangan suv ta’minoti” AJ Davlatobod tumani bo‘limining 19.12.2024 yildagi 02/549-sonli texnik shartiga muvofiq nazarda tutilgan. Ulanish nuqtasi etib mavjud suv tarmoqlari qabul qilingan.

4.2. Oqava suv – “Namangan suv ta’minoti” AJ hududiy “Oqava tozalash” filialining 17.12.2024 yildagi 02/139-sonli texnik shartiga muvofiq nazarda tutilgan. Ulanish nuqtasi etib mavjud oqava suv tarmoqlari qabul qilingan.

4.3. Tashqi elektr ta’minoti va tashqi issiqlik tarmoqlari – “Shaffof qurilish” MAT dagi 107295-sonli murojaat bilan yuklangan loyihaga alohida xulosa beriladi.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

- Namangan viloyati Arxitektura va shaharsozlik kengashining 6.05.2025 yildagi 190500838-sonli xulosasi.
- Davlat ekologik ekspertizasi Markazi Namangan viloyati filialining 24.12.2024 yildagi 01-02/07-1957-sonli xulosasi.
- Xonalar joylashtirish rejasi buyurtmachi bilan kelishilgan.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **933 048 088 300** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati
32 045 239 299 so'mga kamaytirilib, **901 002 849 001** so‘mni tashkil etadi. Xususan:
Qurilish-montaj ishlari: **753 686 318 541** so'm
Asbob-uskunalar: **50 780 510 924** so'm
QQS: **96 536 019 536** so'm

Belgilansinki, qayta ekspertiza berilishi munosabati bilan 31.12.2025 yilda berilgan 271205-sonli yig‘ma ekspert xulosasi – bekor qilinadi.

6.1. Ekspertiza jarayonida mutaxassislarning izohlariga muvofiq loyiha hujjatlariga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritildi:

- Tasdiqlangan topotasvir chizmasi – taqdim etildi.
- Qizil chiziqda qurilish uchun ajratilgan yer maydoni va umumfoydalanishdagi yer maydoni alohida – ko‘rsatildi.
- Bosh reja chizmasi to‘liq hajmda (vertikal tekislash rejasi, yer ishlari kartogrammasi va hokazo) – ishlab chiqildi
- Bosh reja “Bino va inshootlar qaydnomasi”da turar-joy binolarining qavatlar soni, qurilish va umumiy maydoni, qurilish hajmi ishchi loyihasi bilan – muvofiqlashtirildi.
- Bosh rejada 2-chi bosqichdagi chiqindi maydon o‘rni – ko‘rsatildi.
- ShNK 2.07.01-23 ning 89-bandi 4-jadvaliga asosan bosh rejada bolalar maydoni – ko‘zda tutildi
- ShNK 2.07.01-23 ning 407 va 408-bandlariga asosan bosh rejada velosipedlar turargohi – ko‘zda tutildi
- Bolalar maydoni qoplama tarkibi – ko‘rsatildi.
- ShNQ 2.07.02-23 ga asosan bosh rejada ko‘kalamzorlashtirish me’yori – ta’minlandi.
- Qurilishni tashkil etish loyihasi – ishlab chiqildi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarga qulay va to‘siqsiz muhit yaratish albomi.

- Albomga bosh reja bo‘yicha ishchi chizmasi – qo‘shildi.
- ShNQ 2.07.02-24ning 201-bandiga asosan avtoturargohlarning nogironligi bo‘lgan shaxslarga – ajratildi.
- ShNQ 2.07.02-24ning 200-sonli qaroriga asosan avtoturargohlar o‘lchami 3,6x6,0metrga – ko‘zda tutildi.

Ko‘p qavatli turar-joy binolari (“A” tip, “G” tip, “D” tip).

- O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2.10.2024 yildagi 14-06/10342-sonli xatiga asosan loyihada zilzilabardoshlikka doir instrumental-texnik tekshiruvdan o‘tkazish bo‘yicha talablar – aks ettirildi.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.04.2024 yildagi PQ-161-sonli qarorining 8-ilova 4.1-bandiga asosan loyiha-smeta hujjatlarida zilzilabarboshlikka doir “vibrodinamik” uskuna yordamida tekshiruvdan o‘tkazish yechimlari – aks ettirildi.
- Xonalar joylashtirish rejasi buyurtmachi bilan – kelishildi.

Ko‘p qavatli turar-joy binosi “G va A” tip (AR-bo‘limi).

- Texnik qavat rejasi – ishlab chiqildi.
- Zina katagidagi tutqichlar devor tutqichlariga – o‘zgartirildi.
- Issiq himoya qoplamasidan avval 10mm qalinlikda oddiy suvoq – ko‘zda tutildi.
- Tashqi issiqlik himoya qatlami hisob asosida – o‘zgartirildi.
- ShNQ 2.08.01-24ga asosan derazalarda og‘ma ochilish – ko‘zda tutildi.

Ko‘p qavatli turar-joy binosi “G” tip (KJ-bo‘limi).

- Ishchi loyihada umumiy ma’lumotlar varag‘i – ishlab chiqildi.
- Qayta ishlab chiqilgan seysmik kuchlar hisobi – taqdim etildi.
- Yaxlit quyma ora yopmalarda tuynuklar (shaxtalar) o‘lchami – ko‘rsatildi.
- Pentxaus qavatda “V-G” o‘qlardagi 5-6/7-8 xonalarni ajratuvchi devorlarni plitalarga tushadigan yuklarni kamaytirish maqsadida zichligi 600 kg/m3 dan ortmagan avtoklav gazablokka – o‘zgartirildi.
- Pandus ishchi chizmalari – ishlab chiqildi.

Ko‘p qavatli turar-joy binosi “A” tip (KJ-bo‘limi).

- Poydevor va seysmik kuchlar hisobi – taqdim etildi.
- Vipusk V-1, armaturalar soni – o‘zgartirildi.
- Pandus ishchi chizmalari – ishlab chiqildi.

Ko‘p qavatli turar-joy binosi “D” tip (AR-bo‘limi).

- ShNQ 2.08.01-24ning 36-bandiga asosan mehmonxona kengligi 3,0 metrga – o‘zgartirildi.
- Issiq himoya qoplamasidan avval 10mm qalinlikda oddiy suvoq – ko‘zda tutildi.
- Tashqi issiqlik himoya qatlami hisob asosida – o‘zgartirildi.
- ShNQ 2.08.01-24ga asosan derazalarda og‘ma ochilish – ko‘zda tutildi.

Ko‘p qavatli turar-joy binosi “D” tip (KJ-bo‘limi).

- Poydevor va seysmik kuchlar hisobi – taqdim etildi.

Kichik me’moriy inshootlar.

- Ayvon ishchi chizmalari – taqdim etildi.

Muhandislik ta’minoti.

Ichimlik va oqava suv ta’minoti.

- Tashqi ichimlik suv ta’minotiga ulanish nuqtasida mavjud tarmoq – ko‘rsatildi.
- Suv tarmog‘i rejasi NVK-3 batafsil chizmada yong‘in gidrantlari o‘rni – ko‘rsatildi, tashqi SO.NVK jihoz va uskunalar jadvaliga kiritilgan gidrantlar soni chizmaga muvofiq – ko‘paytirildi.

- NVK-3 batafsil chizmada ichimlik suv quvurlarining diametrlari va o‘lchamlar – ko‘rsatildi.
- Binolar VK-2 varaqlarida suv quvuri kirish diametriga asosan tashqi NVK bosh rejasida keltiruvchi tarmoqlar diametrlari – qayta ko‘rib chiqildi hamda kichik berilgan qismlarda diametrlar – kattalashtirildi.
- SO.NVK-1-3 jihoz va uskunalar jadvalariga kiritilgan quvurlar, zadvijkalar barcha “A”, “G”, “D” tipdagi turar-joy binolar uchun hisoblab – qayta tuzildi.
- Tashqi NVK-1 bosh rejada balandlik nuqtalari ko‘rinarli tarzda – qayta taqdim etildi.
- NVK-1 bosh rejada mavjud oqava suv quvuri diametri – ko‘rsatildi.
- Tashqi NVK-4 chizmada oqava suv quvurlarining diametrlari va o‘lchamlar ko‘rsatilgan holda – qayta ishlandi hamda tashqi magistral, olib ketuvchi quvurlar diametrlari – kattalashtirildi.
- Binolar balandligini inobatga olib ShNQ2.04.01-22ning 77, 78-bandlariga asosan SO.VK-6 jihoz va uskunalar jadvallaridagi qabul qilingan yong‘inga qarshi nasoslar quvvati – oshirildi.
- “A”, “G”, “D” tip turar-joy binolarning yong‘inga qarshi suv ta’minoti tizimida ShNQ2.08.01-24ning 257-bandiga asosan bino fasadiga chiqarilgan birlashtiruvchi tirsaklar bilan – jihozlandi.
- “D” tip turar-joy binoning VK-2 varag‘ida oqava suv chiqish quvuri NVK-1 bosh rejaga asosan – o‘zgartirildi.
- “D” tip turar-joy binoning qavatlar soniga muvofiq yong‘in kranlari VK-9 aksonometrik chizmada – to‘g‘rilandi.

Isitish va shamollatish

- Issiqlik himoyalash hisob ishlarida tom uchun berilgan qatlam va qalinliklar AS ishchi chizmasiga mos ravishda – ishlab chiqildi.
- Yerto‘la qavatida olib yurilgan quvurlarlarning balandlik sathalari, diametrlari – ko‘rsatildi va issiqlik himoya qatlami bilan – qoplandi.
- Umumiy quvvatga asosan quvurlar va kirish tuguni (uzel vvoda) diametrlari – o‘zgartirildi.

Elektr qismi.

- 1-toifali qurilmalar uchun zahira elektr ta’minoti sifatida quyosh panellaridan –ta’minlandi.
- Binolarning oshxonalari elektr ta’minoti yechimlari – o‘zgartirildi.
- Shitlarning hisobiy sxemalari – qayta ishlandi.
- Binoning hisobiy quvvatlari – qayta hisoblandi.
- Xonadonlarning hisoblagichlari qavat shitlarida – o‘rnatildi.
- Quyosh panellari soni va quvvati – o‘zgartirildi.

6.2. Ekspertiza tomonidan import qurilish materiallar va buyumlar, maxsus uskunalar hamda texnologik jihozlarning narxlari ko‘rib chiqilmadi.

6.3. Smeta hujjatlarida ko‘rsatilgan pudratchining boshqa harajatlari miqdori bo‘yicha “Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish Respublika markazi” DM Namangan viloyati hududiy boshqarmasi majburiyatini o‘z zimmasiga olmaydi. Buyurtmachi va pudratchi o‘rtasida haqiqatda ishlagan mashina va mexanizmlarni ishlatish xarajatlari hamda qurilish-montaj ishlarini bajarish davriga taalluqli “Pudratchining boshqa xarajatlari” kattaligi bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirishi lozim.

6.4. Yakuniy xarajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so‘ng nazorat o‘lchovi natijalari asosida aniqlanadi.

6.5. Buyurtmachi loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.6. Ekspertizadan o‘tkazish uchun taqdim etilgan loyiha hujjatlarining to‘liqligi, ma’lumotlarning ishonchliligi yuzasidan buyurtmachi va qabul qilingan loyiha yechimlari yuzasidan ishlab chiquvchi javobgar hisoblanadi.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda “Namangan viloyati Namangan shahar Davlatobod tumani Yelxon MFY Islom Karimov ko‘chasi 185-uy hududida “SAMO BUILD-14” MCHJ tomonidan Shaharsozlik norma va qoidalari asosida, loyihadan chetlashmaslik sharti bilan o‘z qizil chizig‘i hududida “Savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish shahobchalari yerto‘la va qo‘shimcha pentxausni o‘z ichiga olgan ko‘p qavatli turar-joylar kompleksi” bino-inshootlari qurish (2-bosqich)” ishchi loyihasi kelgusida ko‘rib chiqish va tasdiqlashga tavsiya etiladi.

Bosh ekspert: Abdunazarov Nemadjon Abdurazakovich.

Ishtirokchi ekspertlar: Abdunazarov Nemadjon Abdurazakovich